

O‘ZBEKISTONDA CHORVA MOLLARIDA UCHRAYDIGAN TURLI KASALLIKLARGA QARSHI KURASHDA VETERINARIYA XIZMATINING O‘RNI

Samiyev Abdullo Yashinovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Sa’dullayev Sanjar Salohiddinovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, charvochilik va biotexnologiyalari
universiteti o‘qituvchisi

a.samiyev@kiut.uz

Annotatsiya. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida chorva mollarining turli kasalliklariga qarshi kurash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bu davrda soha boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi, sohaga bosqichma-bosqich bozor munosabatlari mexanizmining joriy etilishi va boshqalar shular jmlasidandir. Natijada, bu borada muayyan yutuqlarga erishildi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda chorva mollarining turli kasalliklariga qarshi kurashda veterinariya xizmatining o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: veterinariya, soha boshqaruvi, bozor munosabatlari, pulli zooveterinariya xizmati, hayvonlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar.

THE ROLE OF THE VETERINARY SERVICE IN COMBATING VARIOUS DISEASES OCCURRING IN LIVESTOCK IN UZBEKISTAN

Annotation. During the years of independence, large-scale efforts have been carried out in Uzbekistan to combat various diseases of livestock. During this period, the sector’s management system was improved, market-based mechanisms were gradually introduced into the industry, and a number of other reforms were implemented. As a result, certain achievements were attained in this field. This article discusses the role of veterinary services in combating various diseases of livestock in Uzbekistan.

Keywords: veterinary medicine, sector management, market relations, paid zooveterinary services, infectious diseases in animals.

РОЛЬ ВЕТЕРИНАРНОЙ СЛУЖБЫ В БОРЬБЕ С РАЗЛИЧНЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ, ВСТРЕЧАЮЩИМИСЯ У СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЖИВОТНЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В годы независимости в Узбекистане был осуществлён широкий комплекс мероприятий по борьбе с различными заболеваниями сельскохозяйственных животных. В этот период были усовершенствованы системы управления отраслью, поэтапно внедрены механизмы рыночных отношений в сфере и проведён ряд других реформ. В результате в данном

направлении были достигнуты определённые успехи. В статье рассматривается роль ветеринарной службы в борьбе с различными заболеваниями сельскохозяйственных животных в Узбекистане.

Ключевые слова: ветеринария, управление отраслью, рыночные отношения, платные зооветеринарные услуги, инфекционные заболевания животных.

KIRISH. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda veterinariya sohasini zamon talablari bo‘yicha rivojlantirish dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Shu maqsadda sohaga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish, uning samaradorligini oshirish bo‘yicha bir talay ishlar amalga oshirildi. Soha boshqaruvini takomillashtirish, sohaga bosqichma-bosqich bozor munosabatlarini joriy etish va ixtisoslashgan pulli zooveterinariya xizmatini tashkil etish va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 7 apreldagi qaroriga binoan har bir tuman veterinariya bo‘limlari qoshida ixtisoslashgan pulli zooveterinariya xizmati bo‘limlarini tashkil etish, davlat veterinariya xizmatining uslubiy rahbarligi ostida faoliyat ko‘rsatuvchi bo‘limlar malakali mutaxassislardan tashkil topishini ta‘minlash nazarda tutildi.

Mohiyatan zamon talablarini o‘zida aks ettiruvchi mazkur xizmat turi barcha joyda ham birdek tashkil etilmadi. Ko‘pchilik tumanlardagi bunday xizmatlar faoliyatida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Jumladan, davlat nazorati organlari tomonidan amalga oshirilgan tekshiruvlar pulli xizmat ko‘rsatuvchi zooveterinariya bo‘limlarining belgilangan tartibda ro‘yxatga olinmaganini ko‘rsatgan edi.

Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash uchun O‘zbekistonning barcha tuman va shahar veterinariya bo‘limlari boshliqlariga quyidagicha ko‘rsatma berildi:

- ixtisoslashgan pulli zooveterinariya xizmati bo‘linmasini tashkil etish to‘g‘risida buyruq chiqarish, tajribali va tashabbuskor veterinariya vrachlari orasidan uning boshlig‘ini tanlash va tayinlash;

- Moliya va Qishloq xo‘jaligi vazirliklari va Davlat bosh soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan hamda 1993 yil 17 noyabrda Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan “Ixtisoslashgan pulli zooveterinariya xizmatining namunaviy Nizomi”gi muvofiq mazku xizmatning ustavini tayyorlash tasdiqlash;

O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar to‘g‘risida”gi qonuniga, “Tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslardan ro‘yxatga olish badallarini undirish va ularni ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida”gi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 12 iyundagi 159-qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlarga asosan mazkur xizmatning ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlash.

Bu davrda yuqoridagi ko‘rsatmalar talab darajasida bajarilmadi. Shu sababdan bu boradagi tegishli mutasaddilarga yuqori davlat nazorat organlari tomonidan belgilangan ishlarning zudlik bilan bajarilishi lozimligi ta‘kidlangan edi. Bundan tashqari, mutasaddilar qonunbuzarlik holatlarining oldini olish maqsadida

“O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobotlari to‘g‘risidagi Nizomi” va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 martidagi 164-qarori bilan tasdiqlangan “Korxonalarining moliya xo‘jalik faoliyatlarida buxgalteriya hisobotini yuritish hisob (schot) rejalari” va shu masalaga doir amaldagi boshqa hujjatlarga muvofiq pulli (xo‘jalik hisobidagi) zooveterinariya tarmoqlari o‘zga veterinariya muassasalari va tashkilotlarida xazina muomalalarini yuritishda tegishli tartib o‘rnatishlari lozimligi ta’kidlandi [1:4].

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat veterinariya bosh boshqarmasiga 1992 yil 10 aprelda yo‘llagan xatida pulli zooveterinariya xizmati uchun aholidan kelishilgan tartibda haq olish mumkinligi ko‘zda tutildi. Hayvonlarning egalaridan haq sifatida olingan mablag‘larni kiritish uchun ishlab chiqilgan maxsus kvitansiyadan foydalanish shartligi belgilandi.

Respublikada mustaqillikning ilk yillarida turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurash ishlari amalga oshirildi. Bu davrda kasalliklarning tarqalishi holati yomonlashdi. Xususan, 1992 yilda Respublika bo‘yicha kuydirgi kasalligining 12 ta nuqtasi aniqlangan bo‘lsa, ushbu kasallik o‘choqlaridan 8 ta kuydirgi kasalligi qayd etildi. Jumladan, Buxoro viloyatida mavjud 2 ta xavfli nuqtada 6 ta kasallangan qoramol aniqlangan bo‘lsa, Toshkent viloyatida ikkitadan ikkita, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ro‘yxatga olingan kasallik o‘choqlarida bittadan kasallangan hayvonlar aniqlangan edi [8].

Kuydirgi kasalligini aniqlashda veterinariya xizmati xodimlarining faoliyatini alohida ta’kidlash joiz. Xususan, bu davrda kuydirgi kasalligi eng ko‘p aniqlangan hudud Buxoro viloyati Kogon tumanidagi “Buxoro” sovxozida 1-sonli uy ijarachisi fuqaro Mavlonovning 7-8 yoshli ikki bosh sigirida kuydirgi kasalligining kapsulyar shakli borligi aniqlangach, ularni so‘yish to‘g‘risida ko‘rsatma berilgan. Tekshiruv davomida ma’lum bo‘lishicha, birlamchi dalolatnomaga ko‘ra, ushbu xo‘jalikning qoramollari 1991 yilning noyabr oyida emlangan bo‘lib, 3 oy o‘tib yana qayta emlangan edi.

1993 yildagi ma’lumotlarga qaraganda O‘zbekistonda chorvachilik agrosanoat majmuasining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligidagi go’sht mahsulotlarining to‘rtidan bir qismini yetkazib bergan. Bu paytda Respublikada 170 ta sut va 7 ta go’sht yetishtirish kompleksi, 47 ta ixtisoslashtirilgan davlat xo‘jaligi va 84 ta qoramol yetishtirish hamda boqish uchun 84 ta xo‘jaliklararo korxona, 4 ta cho‘chqa go’shti yetishtirish, 32 ta broyler parrandachilik, 40 ta tuxum yetishtiruvchi parrandachilik va 11 ta qo‘y boqish komplekslari mavjud edi. Bundan tashqari, 19 ta naslchilik korxonalari, 103 ta naslchilik xo‘jaliklari va naslli qoramollarni yetishtirib beruvchi chorva fermalari mavjud edi [4].

Bu davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan fermer (dehqon) xo‘jaliklarini tashkil etish borasidagi ishlar jadallashtirildi. 1993 yildagi ma’lumotlarga qaraganda ularning soni 14 ming 825 tani tashkil etdi. Bu o‘z navbatida, chorvachilik mahsulotlarini ko‘paytirishning qo‘shimcha zaxirasiga aylandi.

Ammo, amalga oshirilgan tadbirlarga qaramasdan, chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yetarli bo'lmadi va aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondira olmadi. Jumladan, bir yil avval davlat sektorida go'sht ishlab chiqarish 8 foizga, sut 0,2 foizga, tuxum 17 foizga kamaygan bo'lsada, uning o'rnini bosish uchun chetdan shu kabi mahsulotlarni sotib olish sur'ati ham keskin tushib ketdi. Bu paytda chetdan go'sht sotib olish 9 foiz, sut 2,5 foiz va tuxum 35 foizga kamaydi [4]. Bu, o'z navbatida, bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishni taqozo qilar edi.

Bu davrda respublikada chorva mollarini oziqlantirish sharoitlari, boqish va unga qo'yilgan talablar, yosh hayvonlarni olish va boqish texnologiyasining turli xil buzilishi chorva mollarining mahsuldorligiga jiddiy ta'sir qildi. Shuningdek, naslchilikning yuqori letargiyasiga va chorva mollarining ko'p iste'mol qilinishiga olib keldi. Bunday holat chorva hayvonlari miqdoriga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda qoramollarni ko'paytirish borasida ham ko'plab muammolar mavjud edi. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida har 100 bosh g'unajinga to'g'ri keladigan buzoqlar soni 53 boshga, Jizzaxda 61, Qashqadaryoda 66, Surxondaryo viloyatida esa 69 boshdan oshmadi [4]. Ushbu holat Respublikadagi chorva mollarining umumiy soniga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Bu davrda chorva mollari sonining kamayishini oldini olish maqsadida xo'jalik ehtiyojlari uchun chorva mollarini tirik vazni past bo'lgan holda so'yish hisobiga go'sht yetishtirish cheklab qo'yildi. Ammo shunga qaramasdan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari fermer xo'jaliklarida o'rtacha tirik vazni 163-189 kilogrammdan kam bo'lgan kam vaznli qoramollarni so'yish davom ettirildi.

Umuman olganda ushbu yillarga kelib turli sabablar tufayli barcha hududlarda chorva mollari va parrandalar sonining qisqarishi tendensiyasi kuzatildi. Xususan, 1993 yilda qoramollar soni 46 ming boshga, cho'chqalar 95 ming boshga, qo'y va echkilar 37 ming boshga va parrandalar soni esa 1,9 million boshga kamaydi [5]. Yuqoridagi holat chorva mollari bilan aholi ehtiyojlarini ta'minlash ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1997 yilga kelib respublikada epizootik kasalliklarga qarshi kurash tadbirlari 89 nomda bo'lib, ularning tashxisiy, kasallikning oldini olish, klinik tekshirish kabi rejalari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, respublika miqyosida brusellyozga qarshi tadbirlar amalga oshirildi. birgina Toshkent viloyati misolida olib qaraganda, ushbu yilda brusellyozga qarshi 302 ming yirik shoxli qoramol, 10 ming mayda shoxli qoramollar tekshirilgan bo'lsa, sil kasalligiga qarshi esa 292 ming bosh hayvonlar tekshiruvdan o'tkazildi [1:1].

Bu davrda O'zbekiston Respublikasida veterinariya xizmati, veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish veterinariya xizmati mutaxassislari – davlat va xususiy tashkilotlar talablari asosida amalga oshirildi. Ularda jami 8,5 mingdan ortiq veterinariya mutaxassislari mehnat qildi. Veterinariya xizmatiga rahbarlikni esa O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi

vazirligining Davlat veterinariya bosh boshqarmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahar veterinariya boshqarmalari amalga oshirdi.

Veterinariya sohasiga bozor munosabatlarini joriy etish ishlari ham davom ettirildi. 1997 yilga qadar Respublikada 1450 ta xususiy veterinariya punktlari ro‘yxatga olingan edi. Ushbu ro‘yxatni yanada kengaytirish sohani yanada rivojlantirish omillaridan biriga aylandi. Shu sababli, davlat mulkini xususiylashtirish tadbirlari munosabati bilan aksiyadorlik, xususiy va fermer xo‘jaliklari chorvachiligi hamda respublika veterinariya organlari tomonidan xususiy veterinariya xizmatlari tarmog‘ini joriy etish ustida ish olib borildi [6]. Xususiy veterinariya muassasalari tarmog‘ining joriy etilishi soha boshqaruviga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatdi.

Umuman olganda bu davrda mamlakatda bir qator o‘tkir yuqumli kasalliklar bo‘yicha epizootik holat barqarorligicha qoldi. Biroq ayni paytda ayrim hududlarda B ro‘yxatidagi kasalliklar qayd etildi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida qoramollarda kuydirgi (B 051) qayd etildi. Qutirish (B 053) bilan kasallanish kamayganiga qaramay, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida epizootik vaziyat keskinligicha qoldi. Ushbu hududlardagi qutirish kasalligining asosiy manbai itlar bo‘lib, kasallangan hayvonlar umumiy sonining 73,5 foizini tashkil qildi [6].

Yuqorida nomlari keltirilgan kasalliklarni aniqlash va oldini olish va bu borada yangi texnologlarni joriy etish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, diagnostika usullarini takomillashtirish uchun “G‘arbiy Osiyoda teri zararkunandalarini yo‘q qilish dasturi”, shuningdek, bir qator uskunalar, jumladan, dasturiy ta‘minot bilan jihozlangan kompyuter, maxsus tesni o‘tkazish uchun diagnostika to‘plamlari ajratildi. Respublika veterinariya laboratoriyasi negizida hududiy laboratoriyalari mutaxassislariga ushbu uskuna yordamida diagnostika usullari o‘rgatildi. Yuqorida nomlari keltirilgan uskunalar mavjudligiga qaramasdan, bu davrda Respublikada hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olishda asosan vaksinalardan foydalanildi. Respublikada yagona bo‘lgan biologik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxona turli sabablarga ko‘ra bunday mahsulotlarni kerakli miqdorda va assortimentda ta‘minlay olmadi. Natijada, tegishli tashkilotlar biologik mahsulotlarning asosiy qismini xorijdan olib kelishga majbur bo‘ldi. Bunday mahsulotlarni kerakli miqdorda yetkazib berish uchun “ARS sZ LTD (Chexiya)” firmasi bilan O‘zbekistondagi biokombinatni rekonstruksiya qilish bo‘yicha shartnoma tuzildi [7].

XULOSA. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash borasida ham bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada Samarqand qishloq xo‘jaligi institutining o‘rni va roli katta bo‘ldi. Jumladan, mustaqillikning dastlabki o‘n yilida institutda 4 nafar fan doktori 20 dan ortiq fan nomzodlari tayorlandi, qishloq xo‘jalig hayvonlari kasalliklarini oldini olish va davolash maqsadida veterinariya amaliyoti uchun 50 dan ziyod tavsiyanoma va qo‘llanmalar ishlab chiqilib, joriy etildi. Bundan tashqari, 15 turdan ortiq veterinariya preparatlarini yaratilib, sinovdan o‘tkazilgan bo‘lsa, ularning 5 tasi import o‘rnini bosuvchi preparatlar hisobiga to‘g‘ri keldi [3].

Institutda ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish ishlari ham olib borildi. Jumladan, institutning ishlab chiqarish sexlarida qo‘shimcha 10 turdagi veterinariya preparatlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, monoftorin preparatini ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashtirilishi natijasida chetdan keltirib kelingan vositalar o‘rnini bosuvchi preparatlarning o‘zimizda ishlab chiqarilishi va qo‘llanilishi yo‘lga qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamadiyorova L. Izlanganga tole yor//Veterinariya jurnali// 1998 yil, mart oyi.
2. Quronboyev A. Ixtisoslashgan pulli zooveterinariya xizmatini tashkil etish // Veterinariya jurnali, 1996 yil 3-son.
3. Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutiga 90- yil Samarqand 2016 yil.
4. O‘zR VDQA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 115-ish, 1-varaq
5. O‘zR VDQA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 115-ish, 2-varaq.
6. O‘zR VDQA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 117-ish, 1-varaq.
7. O‘zR VDQA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 117-ish, 2-varaq.
8. O‘zR VDQA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 87-ish, 3-varaq.